

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI (SHHT) - MINTAQAVIY
XAVFSIZLIK VA IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI

Xakimova Gulrux Abdunabiyevna

Buxoro viloyat yuridik texnikumi o'qituvchisi

Tel: 998 (93) 450 28 33

e-mail: xakimovagulrux92@gmail.com

Ikromova Maqsuda Baqoyevna,

“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasida asisenti.

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti

Milliy Tadqiqotlar Universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Buxoro sh, O'zbekiston

Tel: (93) 454 15 70

e-mail: ikromova_m1969@umail.uz

Annotatsiya: Maqola Shanxay Hamkorlik Tashkilotining asosiy vazifalari, tashkilotning tashkil etilish tarixi va hozirgi zamonning dolzarb muammolari to'liq yoritib berilgan. Mintaqaviy xavfsizlikni kafolatli ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashish borasida tashkilotning amalga oshirgan harakatlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Shanxay beshligi, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, separatizm, consensus, sammit.

Ikromova Maksuda Bakoyevna

Teacher of the Uzbek and Literature Department, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University

of Natural resources management Uzbekistan, Bukhara

Mobile phone: (93) 454 15 70

e-mail: ikromova_m1969@umail.uz

Annotation: The article describes the main tasks of the Shanghai Cooperation Organization, the history of the organization, and current problems. Information was also given about the organization's efforts to ensure regional security, fight against terrorism, extremism, separatism and illegal drug trade.

Key words: Shanghai five, terrorism, extremism, separation, separatism, consensus, summit.

Икромова Максуда Бакоевна

*Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы,
Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского
хозяйства Национальный исследовательский университет Бухарский
институт природопользования, Узбекистан, Бухара*

Tel: (93) 454 15 70

e-mail: ikromova m1969@umail.uz

Аннотация: В статье описаны основные задачи Шанхайской организации сотрудничества, история организации и современные проблемы. Также была дана информация об усилиях организации по обеспечению региональной безопасности, борьбе с терроризмом, экстремизмом, сепаратизмом и незаконным оборотом наркотиков.

Ключевые слова: Шанхайская пятерка, терроризм, экстремизм, разделение, сепаратизм, консенсус, саммит.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonning eng dolzarb muammolarini samarali hal qilishda, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda katta hissa qo'shib kelayotgan nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi.

1996-1997-yillari "Shanxay beshligi" nomi bilan tashkil etilgan hamda 2001-yili O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi bilan "Shanxay hamkorligi tashkiloti" nomini olgan mazkur tuzilmaning asosiy maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro do'stlik, ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, shuningdek, xavfsizlik, energetika, transport, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa ustuvor sohalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Mintaqaviy xavfsizlikni kafolatli ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashish tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joiz, tashkilot "Shanxay ruhi" negizida tashkil qilingan bo'lib, ushbu tamoyil o'zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, umumiy taraqqiyotga intilish kabi asoskor qoidalarni o'zida muajassam etadi. "Shanxay ruhi" tashkilotga a'zo davlatlarning siyosiy, harbiy va iqtisodiy qudrati har xil o'lchamda bo'lishiga qaramay, ularning barchasi teng va hamjihatligini bildiradi.

Chunonchi, SHHT doirasida barcha qarorlarning konsensus asosida qabul qilinishi tamoyili ham "Shanxay ruhi"ning mazmun-mohiyatini va uning mukammal tuzilma sifatida namoyon etadi. Ushbu tamoyil tashkilotning "o'rta" va "kichik"

salohiyatli a'zolariga jahonning qudratli kuch markazlari hisoblangan Xitoy va Rossiya bilan bir qatorda, SHHT ustuvor yo'nalishlarini belgilashda faol va teng huquqli ishtirok etish imkonini beradi.

Agar SHHTni boshqa mintaqaviy va transmintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan solishtiradigan bo'lsak, u naqadar katta kuch va salohiyatga ega ekanini ko'ramiz. SHHTga a'zo davlatlarning ikkitasi, ya'ni Rossiya va Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari hisoblanadi. Dunyo aholisining deyarli yarmi SHHTga a'zo mamlakatlarda istiqomat qiladi.

Tashkilotning umumiy makoni Yevrosiyo hududining 60 foizini egallaydi. SHHTga a'zo davlatlarning yalpi ichki mahsuloti jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 23 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizning so'nggi yillarda SHHT doirasidagi faoliyatini tashabbuskorlik va pragmatizm tamoyillari ustuvor bo'lib borayotgani bilan ifodalash mumkin. SHHT doirasida milliy manfaatlarimizga javob beradigan ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ilgari surilgan barcha taklif va tashabbuslarimiz mintaqadagi barqarorlik hamda hamkorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi.

Chunonchi, so'nggi yillarda O'zbekiston SHHT doirasida yangi hamkorlik platformalarini ishga tushirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi: Prezident farmoni bilan Toshkentdagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi ochildi, Tashkilotga a'zo davlatlar temir yo'l ma'muriyatlari rahbarlarining uchrashuvlari mexanizmi yo'lga qo'yildi, Samarqanddagi Ipak yo'li xalqaro turizm instituti barpo etildi. Bu poytaxtimizda muqaddam ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasiga qo'shimcha tuzilmalar sifatida O'zbekistonning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, o'tgan 5 yil mobaynida O'zbekiston tomoni 30 dan ortiq tashabbusni ilgari surdi. Bu ancha jiddiy va katta ko'rsatkich hisoblanadi. Eng muhimi, O'zbekiston tashkilot doirasida o'z tashabbuslari shunchaki e'lon qilmasdan, balki ularni amaliy chora-tadbirlar orqali hayotga faol joriy etayotgani bilan ajralib turadi.

SHHT Davlat rahbarlari kengashining 2020-yil oktyabr oyida Rossiya Federatsiyasi raisligida bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida davlatimiz rahbari pandemiya sharoitida "Shanxay ruhi"ni mustahkamlashning muhimligiga katta e'tibor qaratib, global xatar va tahdidlarni yaxshi qo'shnichilik, teng huquqlilik, o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish yo'li bilan yengish mumkinligini ta'kidladi. "Har birimiz kuchli bo'lgan taqdirdagina, SHHT ham kuchli bo'ladi, – deb alohida ta'kidladi Prezidentimiz. – Buning uchun bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, kun tartibimizdagi asosiy masalalarga birgalikda murosa izlashimiz, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega".

Samarqandda o'tkazilishi kutilayotgan navbatdagi sammitning kun tartibidan terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik dasturi,

xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bo'yicha harakatlar rejasi, yashil belbog' dasturi, sayyohlik va madaniyat poytaxtlari haqidagi nizom, shuningdek boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik bo'yicha anglashuv memorandumlarini tasdiqlash o'rin olgan.

Davlat rahbarlari, shuningdek, Afg'onistondagi murakkab vaziyatni keng muhokama etishlari kutilmoqda. Chunki ushbu davlatda tinchlikni o'rnatish SHHTning barcha a'zolari uchun strategik masaladir.

Sammit – ushbu muammoni muhokama qilish uchun juda qulay diplomatik “maydon” hisoblanadi. Xususan, Afg'oniston bilan o'zaro munosabatlar, jafokash afg'on xalqiga har tomonlama yordam va ko'mak berishni kuchaytirish bilan bog'liq barcha masalalar atroflicha muhokama qilinishi kutilmoqda.

O'z navbatida, O'zbekiston tomoni ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, kelgusida Afg'onistonga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatishning aniq dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surmoqda. Hozirda mamlakatimiz gumanitar inqirozga yo'l qo'ymaslik uchun bu davlatga zaruriy oziq-ovqat, neft va elektr energiyasini yetkazib berishda davom etmoqda.

O'zbekiston mazkur obro'li tuzilma doirasida doimo yangi xavf va xatarlarga qarshi kurash, savdo va iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik bo'yicha qo'shma salohiyatlarni oshirishga, aholi farovonligini ko'tarishga, sanoat kooperatsiya jarayonlariga, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga, transport-kommunikatsiya aloqalarini mustahkamlashga jiddiy ahamiyat qaratib keladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda SHHT o'zini samarali mexanizm sifatida namoyon etib, siyosat va xavfsizlikdan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan keng qamrovli masalalarni o'z ichiga olgan mintaqaviy muammolarning butun bir majmuini hal etishga qodir xalqaro forum sifatida jahon siyosat sahnasidan mustahkam o'rin egalladi. Dunyo bo'ylab keng tarqalgan pandemiya esa SHHTga bo'lgan obyektiv hayotiy zaruratni yanada oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tsygankov P.A., Xalqaro munosabatlar nazariyasi: Prok. Foyda. -M.: Gardarika, 2003. - 590 b.
2. Vasilev L.E., Romyantsev E.I., Shanxay hamkorlik tashkiloti. Doc - siz va materiallar. –M.: IVRAN, 2007.-167 b.
3. Torkunov A.V., Zamonaviy xalqaro munosabatlar: Prok. Foyda. -M.: "Rossiya siyosiy entsiklopediyasi" (ROSSPEN), 1999. -584 b.
4. Izatulla Ezati., ShHT va Yevrosiyo kelajagi: Tahliliy hisobotlar. -M.: MGIMO (U) № 3 (18) / 2006 y. – 214 b.